(5). Салмин А.М. Природа и роль базовых политических ориентаций (на примере Франции). А.М. Салмин. Полития. Анализ. Хроника. Прогноз. 2005, № 3, с. 194.

(6). Цыганков П.А. Политическая культура и национальные школы социально-гуманитарного знания (пример французской теории международных отношений). Политическая культура современной России: состояние, проблемы, пути трансформации. Материалы "круглого стола". М., КДУ, 2009, с. 146–147.

Pulatov Jaxongir Nazirovich (Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti
pulatovjahongir00@gmail.com)

YANGI O'ZBEKISTONDA INSON QADRI VA IJTIMOIY TARAQQIYOTNING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lash va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash bir-birini taqozo etuvchi dialektik jarayon ekanligi, inson qadri, huquq va imkoniyatlari kafolatlanishi mamlakatda yangi intellektual va ma'naviy yuksalish davriga poydevor bo'lib xizmat qilishi falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Inson qadrini yuksaltirishga doir ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *inson qadri, inson manfaatlari, turmush darajasi, ijtimoiy taraqqiyot, barqarorlik, farovonlik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy adolat, pluralizm.*

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕСТИ ЧЕЛОВЕКА И СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В статье философски проанализировано, что возвеличивание человеческого достоинства и обеспечение социального развития в Новом Узбекистане являются взаимосвязанными диалектическими процессами, а гарантирование человеческого достоинства, прав и возможностей служит фундаментом для нового периода интеллектуального и духовного роста в стране. Представлены научно-теоретические предложения и рекомендации по повышению человеческого достоинства.*

Ключевые слова*: человеческое достоинство, человеческие интересы, уровен жизни, социальное развитие, стабилност, просветание, сотсиально-экономические реформы, сотсиалная справедливост, плюрализм.*

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF HUMAN DIGNITY AND SOCIAL DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Annotation.*The article philosophically analyzes the fact that in New Uzbekistan, the glorification of human dignity and the provision of social development are mutually exclusive dialectical processes, and that the guarantee of human dignity, rights and opportunities serves as the foundation for a new era of intellectual and spiritual uplift in the country. Scientific and theoretical proposals and recommendations for the promotion of human dignity are presented.*

Keywords*: human dignity, human interests, standard of living, social development, stability, prosperity, socio-economic reforms, social justice, pluralism.*

Kirish. Bugungi ilm-fan taraqqiyoti o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan bir davrda inson qadrini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, har qanday mamlakatlarning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyoti uning iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan emas, balki eng avvalo, insonga bo'lgan munosabati, uning huquq va erkinliklarini qay darajada ta'minlay olgani bilan baholanayotganligi yuqoridagi fikrga ishoradir. Shu ma'noda, Yangi O'zbekistonda kechayotgan tub islohotlar mohiyatini anglash, davlat va jamiyat poydevorini mustahkamlashga qaratilayotgan jarayonlarni falsafiy jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirishga qaratilayotgan islohotlar "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida olib borilayotganligi yangi davlatchilikning konseptual asosi va bosh falsafiy mezoniga aylandi. "Yangi O'zbekistonda "Davlat – inson uchun" tamoyili asosida inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga amal qilish masalalari islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu esa nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson qadri va manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilganining e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda" [1]. Zero, inson jamiyatdagi ijtimoiy adolatni, ma'naviy yuksalishni va barqaror iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Demak, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiya qilish inson qadri va ijtimoiy taraqqiyotning o'zaro dialektik aloqadorligini falsafiy jihatdan talqin qilish dolzarb vazifalardan biridir. Chunki moddiy farovonlik ma'naviy va intellektual yuksalish bilan uyg'unlashmagan

joyda chinakam ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Shu bois Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotini tahlil qilish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson qadri muammosini tadqiq etishda Sharq va G‘arb falsafiy tafakkurining konseptual yondashuvlarini tahlil qilish muhim metodologik ahamiyatga ega. G‘arb paradigmasi insonni falsafiy aksioma sifatida o‘z-o‘zidan oliy maqsad deb biladi hamda erkinlik fenomenini tarixiy evolyutsiyaning tub mazmuni sifatida talqin qiladi. Aksincha, Sharq paradigmasida inson qadri axloqiy mezonlar, ma’rifiy yuksalish, ijtimoiy hamjihatlik hamda shaxsning doimiy kamolotga intilish intellektual salohiyati orqali dalillanadi. Zamonaviy postindustrial va raqamli sivilizatsiya sharoitida esa inson qadri ko‘proq ijtimoiy kapital, axborot-resurs zaxiralarini o‘zlashtirish va transformatsiya qilish qobiliyati bilan o‘lchanmoqda. Binobarin, bugungi kunda “inson – qadriyat – jamiyat” triadasini markaziy o‘ringa qo‘ygan holda, Sharq va G‘arb falsafiy yutuqlarini sintez qilish hamda inson qadrini ijtimoiy taraqqiyotning fundamental mezoni sifatida e’tirof etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Zotan, inson qadrini anglash va uni ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi muammosi tarixiy va makoniy evolyutsiyaga ega. Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki fundamental g‘oyalar qadimgi Sharq va G‘arb falsafiy maktablarida o‘ziga xos tarzda shakllandi. Xususan, Sharq falsafasining yirik vakillari qarashlarida inson qadri muammosi gumanistik va jamoaviy taraqqiyot konsepsiyasi bilan uyg‘unlikda ko‘rilgan. Bugungi kunga kelib esa inson qadri shunchaki axloqiy kategoriya emas, balki huquqiy va iqtisodiy barqarorlikning asosiy o‘lchovi sifatida qaralmoqda. Inson qadrini yuksaltirishga oid ilmiy-falsafiy izlanishlarida ma’naviyat, insonparvarlik va inson qadri masalalari muntazam muhokama qilinib kelinmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O‘zbekistonda inson huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati, inson kapitaliga oid muammolarga qator tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, A.Choriyev “Insonning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda falsafasi” [2], Q.Abduraxmonov “inson taraqqiyotini iqtisodiy omillari” [3], Q.Nazarov “Inson qadrini akseologik jihatlari” [4], I.Saifnazarov “vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihatlari”[5], O.G‘aybullayev “yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni” [6], E.Yusupov “inson kamolotining ma’naviy asoslarini” [7], A.Sharipov “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma’naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi”ga [8] oid tadqiqotlar muammoning ilmiy jihatdan ochib berishga xizmat qiladi.

Inson, uning qadr-qimmati va qadriyatlar tizimining ijtimoiy-falsafiy tabiati hamda konseptual mohiyati bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Tarixiy kon’yuktura va ijtimoiy taraqqiyot ta’sirida davrlarga xos mafkuralar hamda dunyoqarash paradigmalarining transformatsiyalashuvi tabiiy jarayon bo‘lsa-da, shaxs va inson qadrini ulug‘lashning fundamental asosi milliy qadriyatlar tizimida barqaror saqlanib qoladi. Negaki, har bir xalq va millatning o‘ziga xosligini, jumladan, inson fenomeniga bo‘lgan yondashuvini belgilovchi uzoq asrlik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy, psixologik va axloqiy-estetik tajribalari, shuningdek, tarixiy an’analari aynan inson qadrini ta’minlashga qaratilgan milliy qadriyatlarning yaxlit strukturaviy asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson kamoloti borasidagi konseptual tasavvurlar falsafiy tafakkurning shakllanishidan ancha avval vujudga kelgan bo‘lib, shaxsning aql-zakovati, ongi va gumanistik fazilatlari uning borliqdagi aziz hamda mukarram maqomini belgilab beradi. Tarixiy-falsafiy an’anada komillik darajasiga erishgan shaxs “sog‘lom”, “barkamol” yoki “haqiqiy inson” kategoriyalari orqali tasniflangan. Mohiyatan, inson qadri fenomeni ijtimoiy tizimda shaxs markaziyatini ta’minlash, uning manfaatlari, huquqlari va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, tizimli ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar inson turmush tarzini yuksaltirish hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga yo‘naltirilgan. Bu borada davlat va jamiyat boshqaruvini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini tubdan oshirdi. Natijada, Yangi O‘zbekiston inson qadri ta’minlangan, huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvor bo‘lgan barqaror ijtimoiy davlat sifatida rivojlanmoqda. Mamlakatning jahon miqyosida integratsiyalashuvi va dunyo hamjamiyatining respublikaga nisbatan ochiqligi ushbu jarayonning muhim indikatoridir. Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, inson qadri aksiologik, antropologik va ekzistensial mezonlar vositasida ochib beriladi va har qanday ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning pirovard samaradorligini baholovchi indikator hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida inson qadr-qimmati, fundamental huquq va erkinliklarini yuksaltirish hamda ularning ishonchli himoya mexanizmlarini yaratish demokratik islohotlarning ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. Shu jihatdan, mamlakatda inson manfaatlarini ta’minlash, uning huquqiy maqomini mustahkamlash va umuminsoniy qadriyatlarni real hayotda qaror toptirish yo‘lida faoliyat yuritayotgan xalqaro subyektlar hamda xorijiy davlatlarning sa’y-harakatlarini yuksak baholaydi. O‘zbekiston global hamjamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida huquqiy-demokratik, adolatli va insonparvar davlat modelini barpo

etish maqsadida inson huquqlarini ta'minlash, himoya qilish va rivojlantirishning institutsional hamda normativ-huquqiy kafolatlarini muntazam ravishda takomillashtirib bormoqda. Mazkur kontekstda inson qadri va huquqlari fenomeni umumbashariy mezonlar, milliy davlatchilik hamda huquqiy falsafa tushunchalarini o'zida konseptual tarzda mujassam etadi. Yangi O'zbekiston o'zining ko'p ming yillik boy ilmiy merosiga tayanib, inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy standartlar va hamma e'tirof etgan normalarning hayotga izchil tatbiq etilishini ta'minlamoqda. Buning natijasida inson qadri va huquqlari muayyan tarixiy hamda etnomadaniy sharoitda o'zining tabiiy-evolutsion rivojlanish qonuniyatlariga ega bo'ladi.

Inson – tabiati va ontologik mohiyatiga ko'ra borliqdagi boshqa barcha biologik organizmlardan tubdan ajralib turuvchi, o'ziga xos aqliy salohiyat, yuksak ma'naviyat, madaniy tizim, axloqiy tafakkur hamda nutqiy aloqa xususiyatlariga ega bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy subyektdir. Shaxsning biosotsial tabiatini belgilovchi genetik xususiyatlar, axloqiy mezonlar va uning xulq-atvorini tartibga soluvchi fundamental xislatlar tarixiy ketma-ketlikda ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadi. Insonning fauna vakillaridan farqini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biri – uning o'z amaliy faoliyatini ongli ravishda muvofiqlashtirish va boshqarish layoqatidir. Bu xususiyat shaxsning ijtimoiy-madaniy borliq sifatidagi yetukligini ifodalovchi madaniyat mezonidir. Shu bilan birga, shaxsning o'z ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish ko'nikmasiga ega ekanligi uning ustuvor atributiv belgisidir. Inson ontogenezida mehnat determinizm omili bo'lib xizmat qiladi. Zero, aynan ongli mehnat faoliyati orqali inson o'zi yashayotgan tabiiy muhitni transformatsiya qiladi, madaniy va iqtisodiy boyliklar tizimini yaratadi hamda o'z-o'zini intellektual va ruhiy jihatdan izchil takomillashtirib boradi. Zero, Yangi O'zbekistonda inson omilining strategik maqsad darajasiga ko'tarilish jarayonini shunchaki alohida islohotlar yig'indisi emas, balki yaxlit tizimga solingan falsafiy-metodologik konsepsiya sifatida fundamental tadqiq etishga, ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalardagi yangicha qonuniyatlarni ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Ko'p ming yillik evolyutsion xarakterga ega bo'lgan inson borlig'i, uning mohiyati va ekzistensial mazmuni falsafa hamda turdosh fanlarning fundamental obyekti sifatida ko'plab konseptual nazariyalarning vujudga kelishiga asos bo'lgan bo'lsa-da, inson qadri va uning ontologik tabiati doimiy transformatsiyada bo'lganligi sababli, bu muammo har qanday davr rivojida o'zining yechilmagan yangi gnoseologik jumboqlari va tadqiqot tendensiyalarini keltirib chiqarishda davom etmoqda.

Inson qadri, fundamental huquq va erkinliklari hamda milliy va umumbashariy qadriyatlar mutanosibligini ta'minlash nafaqat O'zbekistonda, balki butun mamlakatlar miqyosda ham universal ahamiyat kasb etuvchi dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, so'nggi yarim asr davomida birgina Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida inson qadri, uning huquqlarini kafolatlashga qaratilgan yo'nalishlarni tartibga soluvchi 120 dan ortiq xalqaro konvensiya hamda deklaratsiyalarning qabul qilinganligi mazkur masalaning jahon hamjamiyati uchun strategik ustuvorligini ko'rsatadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadri shunchaki ma'naviy istak yoki shior emas, balki davlatning eng oliy majburiyati, barcha islohotlarning tub maqsadi va qonunchilikning asosiy yo'nalishi sifatida muhrlangan. Bu esa mamlakatda har bir shaxsning o'z salohiyatini erkin ro'yobga chiqarishi uchun huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilishiga ishoradir. "Har bir shaxsning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari umuminsoniy oliy qadriyatga aylangan bo'lib, ushbu qadriyat g'arbda yuzaga kelgan g'oyalarga asoslangan, degan qarashlar mutlaqo noto'g'ri. Zero, inson hayoti, qadr-qimmati, erkinliklari bilan bog'liq tushunchalar Sharq va G'arb tafakkur olamida yuzaga kelgan qarashlarning o'zaro uyg'unlashib, bir-birini to'ldirishi va boyitish natijasida shakllangan" [9].

Zamonaviy taraqqiyot bosqichida O'zbekiston ijtimoiy hayotida inson fenomenini yuksaltirish va uning ekzistensial maqomini mustahkamlash davlat siyosatining strategik ustuvorligiga aylandi. Ushbu yo'nalishdagi institutsional transformatsiyalar hamda ularning ijobiy dinamikasi global hamjamiyat tomonidan ijtimoiy-siyosiy jihatdan e'tirof etilmoqda. Mohiyatan, mamlakatda xalqning etnomadaniy mentaliteti va an'anaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlari poydevoriga qurilgan adolatli ijtimoiy davlat va inklyuziv jamiyat modeli barpo etilmoqda. Zero, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi – keng ko'lamli islohotlar vositasida shaxsning o'z-o'zini namoyon etishi va mehnat farovonligini ta'minlash uchun qulay ijtimoiy-gumanitar makonni shakllantirishdan iboratdir.

Yangi O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar natijasida:

– asosiy qomusimizda "inson – jamiyat – davlat" paradigmasining hamda huquqiy noaniqliklarni fuqaro foydasiga talqin etish tamoyilining mustahkamlanishi, sud-huquq tizimida "Miranda qoidasi" va "Xabeas korpus" institutlarining to'liq qonuniylashtirilishi, shuningdek, raqamlashtirish orqali ma'muriy byurokratiyaning qisqartirilishi – shaxs erkinligi, daxlsizligi va qonun ustuvorligini kafolatlovchi hamda

inson qadrining huquqiy himoyasini davlat taraqqiyotini ta'minlovchi yaxlit mexanizmi sifatida xizmat qiladi;

– aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash va ularga ko'maklashish maqsadida "Temir daftar", "Ayollar daftari" hamda "Yoshlar daftar"lari negizida yaratilgan "mahallabay" ishlash tizimi orqali ijtimoiy yordamni bevosita quyi bo'g'inda manzilli taqsimlash mexanizmining yo'lga qo'yilishi hamda ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan barcha ijtimoiy xizmatlarning yagona platformaga birlashtirilib, nogironligi bo'lgan shaxslar, yetim bolalar va yolg'iz keksalar bilan ishlashning professional metodologiyasi joriy etilishi – mamlakatda inklyuziv va tizimli ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga zamin yaratadi;

- maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish, oliy ta'lim kvotalarini oshirish va xotin-qizlar uchun alohida davlat grantlarini joriy etish orqali inklyuziv bilim olish huquqini kafolatlash, bepul tibbiy yordamning minimal hajmini qonuniy mustahkamlab, birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatlarini mahalla darajasigacha desentralizatsiya qilish (markazdan quyi bo'g'inga tushirish) hamda "kambag'allikdan farovonlik sari' tamoyili asosida fuqarolarni subsidiya, imtiyozli kreditlar va kasbiy qayta tayyorlash mexanizmlari orqali barqaror daromad manbayi bilan ta'minlash – mamlakatda inson kapitalini tizimli rivojlantirishning fundamental asos vazifarisini bajaradi;

– davlat organlarining jamoatchilik oldidagi institutsional hisobdorligini hamda fuqarolar bilan to'g'ridan to'g'ri interaktiv muloqot tizimini qaror toptirish, shuningdek, "Tashabbusli budjet" platformasi orqali aholiga mahalliy infratuzilmaviy muammolarni hal etishda moliyaviy resurslarni yo'naltirish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish – shaxsning jamiyat va davlat boshqaruvidagi subyektlik maqomini, uning ijtimoiy qadr-qimmatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" tamoyili mamlakat taraqqiyotining barcha tarmoqlarini modernizatsiyalashga yo'naltirilgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa, O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar inson qadrini ta'minlashga qaratilganligi nuqtayi nazardan quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

Birinchidan, tarixga nazar tashlasak, Sharq va G'arb olimlari (Ibn Sino, Forobiy, Navoiy, Konfutsiy, Arastu va Kant) insonning odobi, ma'naviyati va burchini jamiyatning asosi deb bilishgan. Bugungi zamo--naviy fanlar ham inson qadrini uning huquqlari, erkinliklari va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq holda, butun dunyo tan olgan qoida sifatida o'rganmoqda. Demak, inson qadri ma'naviyat, qonun va ijtimoiy hayotni birlashtirib turuvchi asosiy tushunchadir.

Ikkinchidan, inson qadri shunchaki odamning tirik jonzot ekanligi bilan o'lchanmaydi. U shaxsning aqli, ma'naviyati va qonuniy huquqlari bilan belgilanadi. Inson qadri shaxs va jamiyat o'rtasidagi totuvlikda, adolat, tenglik va huquqlarning ta'minlanishida ko'rinadi. Bu tushuncha butun dunyo uchun umumiy bo'lsa-da, har bir xalqning o'z milliy qadriyatlari va an'analari asosida o'ziga xoslik kasb etadi. Demak, inson qadrini asrash faqat yaxshi niyat emas, balki davlat siyosatining eng muhim vazifasidir.

Uchinchidan, turli falsafiy oqimlar inson qadrini turlicha tushuntirgan bo'lsa ham, ularning maqsadi bir – insonni ulug'lash. Sharq falsafasi inson qadrini ko'proq ma'naviyat, tarbiya va adolat bilan bog'lagan. G'arb falsafasi esa, buni insonning aqli, irodasi va qonuniy huquqlari orqali tushuntirgan. Bugungi kunda esa, inson qadri demokratik tamoyillar va "inson taraqqiyoti" kabi aniq ko'rsatkichlar bilan o'lchanmoqda. Bu ikki xil yondashuvni birga o'rganish inson qadrini to'liq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari va aniqlangan qonuniyatlardan kelib chiqib, Yangi O'zbekistonda inson qadrini mustahkamlash borasida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

–oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy fanlar yo'nalishi uchun "Yangi O'zbekistonda inson qadri masalalari" deb nomlangan alohida o'quv qo'llanma yaratish va uni tanlov fan sifatida sifatida o'qitishni yo'lga qo'yish;

–inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro qoidalar bilan milliy rejalarni bir-biriga moslashtirish hamda barcha iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarda birinchi navbatda xalq manfaatlarini ta'minlaydigan tizimlar(platformalar, STARTAP loyihalar)ni takomillashtirish;

–OAV orqali inson qadrini ulug'lashga bag'ishlan targ'ibot-tashviqot tadbirlarini hayotiyligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент", O'zbekiston", 2021, 56-бет.

(2). Чориев А. Инсон фалсафаси (Биринчи китоб). Тошкент, Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. 2007.

(3). Абдураҳмонов Қ. Инсон тараққиёти. Тошкент, "Иқтисодиёт", 2013, 464-бет.

(4). Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. Тошкент, Файласуфлар миллий жамияти, 2004, 66-бет.

(5). Saifnazarov I. Yangi O‘zbekiston: Inson qadri ulug‘langan yurt. T., “Ilm-Ziyo-Zakovat” MChJ, 2023, 209-
(6). G‘aybullaev O.M. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni. “Imom Buxoriy saboqlari” jurnali, 2022, 1-son, 145–146-betlar.
(7). Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т., “Университет”, 1998,148-бет.
(8). Sharipov A.Z. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi –yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma’naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida. FarDU, “Ilmiy xabarlar”, 2025, 2-son, 60–64-betlar.
(9). Мирзиёев Ш.М. Нозирги замон ва Янги Ўзбекистон. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2024, 43-бет.

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o‘g‘li (Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi; E-mail: egamberdiyevbaxriddin65@gmail.com)

ZAMONAVIY O‘ZBEK JAMIYATIDAGI URF-ODAT VA MAROSIMLARNING IJTIMOIY-MADANIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek jamiyatida urf-odatlar va marosimlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Urf-odatlar va marosimlar xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘ziga xosligi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy birligini saqlaydigan muhim madaniy institutdir. Maqolada bugungi jamiyatda oila, qo‘shnichilik, to‘y, motam, bayram, mehmondo‘stlik, hashar va kattalarga hurmat kabi an’anaviy amaliyotlarning vazifalari ta’kidlangan. Shuningdek, urf-odatlar va marosimlar urbanizatsiya, migratsiya, globalizatsiya, raqamli aloqa va yoshlarning dunyoqarashidagi o‘zgarishlar ta’sirida yangi ma’no kasb etayotgani ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *urf-odat, marosim, o‘zbek jamiyati, mahalla, milliy qadriyat, nomoddiy madaniy meros, an’anaviylik, zamonaviylik.*

Эгамбердиев Бахриддин Баходир оглу (Наманганский филиал Ташкентского международного университета химии, Преподаватель кафедры социальных и гуманитарных наук; E-mail: egamberdiyevbaxriddin65@gmail.com)

СОЦИО-КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБЫЧАЕВ И РИТУАЛОВ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется социокультурное значение обычаев и ритуалов в современном узбекском обществе. Обычаи и ритуалы являются важным культурным институтом, сохраняющим историческую память, национальную идентичность, моральные ценности и социальное единство народа. В статье освещаются функции традиционных практик, таких как семья, добрососедство, свадьбы, траур, праздники, гостеприимство, хашар и уважение к старшим, в современном обществе. Также показано, что обычаи и ритуалы приобретают новое значение под влиянием урбанизации, миграции, глобализации, цифровых коммуникаций и изменений в мировоззрении молодежи.*

Ключевые слова: *обычаи, ритуалы, узбекское общество, соседство, национальная ценность, нематериальное культурное наследие, традиционализм, современность.*

Egamberdiev Bakhriddin Bakhodir oglu (Namangan branch of Tashkent International Kimyo University Teacher of the Department of Social and Human Sciences; E-mail: egamberdiyevbaxriddin65@gmail.com)

THE SOCIO-CULTURAL SIGNIFICANCE OF CUSTOMS AND RITUALS IN MODERN UZBEK SOCIETY

Annotation. *This article analyzes the socio-cultural significance of customs and rituals in modern Uzbek society. Customs and rituals are an important cultural institution that preserves the historical memory, national identity, moral values, and social unity of the people. The article highlights the functions of traditional practices such as family, neighborliness, weddings, mourning, holidays, hospitality, hashar, and respect for elders in today’s society. It also shows that customs and rituals are taking on a new meaning under the influence of urbanization, migration, globalization, digital communication, and changes in the worldview of young people.*

Keywords: *customs, rituals, Uzbek society, neighborhood, national value, intangible cultural heritage, traditionalism, modernity.*

Kirish. O‘zbek xalqi tarixan boy urf-odatlar, an’analar va marosimlarga ega jamiyatlardan biridir. Bu qadriyatlar xalqning turmush tarzida, oilaviy munosabatlarda, jamoat hayotida, diniy va amaliy qarashlarida, bayramlarida va kundalik muloqot madaniyatida yaqqol aks etgan. Urf-odatlar va marosimlar nafaqat o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan madaniy shakllar, balki jamiyatning hozirgi ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi, avlodlar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlovchi va milliy o‘ziga xoslikni saqlab qoluvchi muhim omil hamdir.